

## **MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG`RIKENGLIK O`ZBEK XALQINING YUKSAK QADRIYATIDIR**

**Ibragimov Solijon Ergashevich**

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti

**Ibragimov Jahongir Solijon o`g`li**

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti 1-kurs magistranti

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada millatlararo totuvlik va diniy bag`rikenglik g`oyasining mamlakatlar rivoji va taraqqiyotidagi ahamiyati va aksincha bo`lsa, taraqqiyot zavoli bo`lib hizmat qilishi haqida, mustaqil O`zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag`rikenglik ijtimoiy voqealikka aylangani va bu borada qilingan ishlar borasida so`z boradi.*

**Kalit so`zlar:** millat, millatlararo totuvliklik, din, diniy bag`rikenglik, konfessiya, milliy-madaniy markazlar, baynalmilal madaniyat.

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье рассматривается значение идеи межнационального согласия и веротерпимости в развитии и прогрессе стран и, наоборот, упадок межнационального согласия и веротерпимости в независимом Узбекистане и работа, проделанная в этом направлении.*

**Ключевые слова:** нация, межнациональное согласие, религия, веротерпимость, конфессия, национально-культурные центры, интернациональная культура.

### **ABSTRACT**

*The article discusses the importance of the idea of interethnic harmony and religious tolerance in the development and progress of countries and, conversely, the decline of interethnic harmony and religious tolerance in independent Uzbekistan and the work done in this direction.*

**Keywords:** nation, interethnic harmony, religion, religious tolerance, confession, national cultural centers, international culture.

### **KIRISH**

Mustaqillik mamlakatimiz uchun taraqqiy etish, dunyoga tanilish imkonlarini ochib berdi. O`zbekistonda ozod va obod Vatanni yaratishda, jamiyat hayotini erkinlashtirishda va farovonlashtirishda, jamiyat hayotini demokratiyalashtirishda millatlararo munosabatlarni takomillashtirib borish tarixiy zaruriyatga aylandi. Chunki turli millat vakillaridan iborat bo`lgan O`zbekiston fuqarolarini qalbi va

ongiga bunyodkorlik, vatanparvarlik tuyg'ularini singdirish orqaligina jamiyatimiz hayotini yuksaltirishimiz mumkin. Avvalo, millat deganda nimani tushunamiz?

Millat uzoq davom etgan ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy va etno – madaniy jarayonda, aniq hududiy doirada til va o'zlikni anglash birligi asosida shakllangan xalq etnik tarixining yuksak cho'qqisi, o'ziga xos milliy ong va mintalitet zaminida tarkib topgan birikish shakli. Millat kishilarning tarixiy birligi sifatida uzoq vaqtlar davomida shakllanib keldi, hamda o'ziga xos bo'lgan milliy mintalitetni boyitib keldi. Millat umumiy iqtisodiy turmush, til, hudud birligi, madaniyat va ruhiyat uyg'unligidir.

Millat bir tilda so'zlashuvchi odamlarning oddiy jamoasi emas. Millat bu tarixiy, ma'naviy, ruhiy, insoniy, siyosiy, ijtimoiy birlikdir. Millat ichki va tashqi uyg'unlik, inoqlik, hamjihatlik muhitida yuksaladi.

Millat o'z atrofidagi boshqa millatlar bilan hamjihatlikda yuksaklab boradi. U doimo o'z manfaatlarini o'zgalarning manfaatlari bilan muvofiqlashtirib boradi. Jamiyat hayoti va tarqiyotida barcha millatlar o'rtasidagi yaxshi munosabatlar va o'zaro hamjihatlik doimo katta rol o'ynab kelgan. Millatlar o'rtasidagi kelishmovchilik jamiyat hayotida beqarorlikka va tanazzulga olib kelishini insoniyat tarixi bir necha bor isbotlab bergan. O'zbekistonda yashayotgan har bir inson uchun Vatan azizdir, millatidan qat'iy nazar ularning vatanparvarligi, fidoyiligi shu yurtning taraqqiy etishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu borada mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan milliy madaniy markazlarning ahamiyati kattadir.

Dastlabki milliy madaniy markazlar koreyslar, qozoqlar, yahudiylar, armanlar tomonidan 1989-yilda tuzilgan. O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach bu markazlar tez rivojlana boshladi, 1992-yilda 10 ta milliy madaniy markaz faoliyat yurgazgan bo'lsa, 1995- yilda ularning soni 72 taga, 2003- yilga kelib esa 135 taga etdi. Natijada bu boradagi ishlarni tizimli yo'lga qo'yish, markazlar faoliyatini muvofiqlashtirish va ularga ko'maklashish maqsadida 1992- yil 13-yanvarda Vazirlar Mahkamasi qarori bilan O'zbekiston Respublikasi "Baynalmilal madaniyat" markazi tashkil qilinib, uning yana bir muhim vazifasi, mamlakatimizda fuqarolar hamjihatligi va millatlararo totuvlikni mustahkamlashga ko'maklashishdan iborat edi.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Xo'sh, millatlararo totuvlik deganda nimani tushunamiz? Millatlararo totuvlik va hamjihatlik umumbashariy qadriyat sanaladi. U muayyan jamiyatda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elat vakillari ahilligining ma'naviy asosini mustahkamlaydi, shu hududdagi tinchlik va barqarorlikning, taraqqiyotning kafolati bo'lib xizmat qiladi. Millatlararo totuvlik - milliy

mafkuramizning asosiy g'oyalaridan biridir. Jahon tajribasi millatlararo totuvlikni ta'minlashga bir yoqlama, yuzaki yondashuv jiddiy muammolarni keltirib chiqarishini ko'rsatdi. Xususan, davlatga o'z nomini bergan (titul) millat bilan o'sha joyda yashaydigan millat va elat vakillari orasidagi munosabatlar jiddiy e'tiborni talab qiladi. Aks holda jamiyat hayotidagi tinchlik va barqarorlik izdan chiqishi mumkin.

O'zbekiston hududida qadimdan ko'plab millat va elat vakillari bahamjihat istiqomat qilib kelgan. Ular o'rtasida asrlar davomida milliy nizolar bo'lmagani xalqimizning azaliy bag'rikengligini ko'rsatadi. Millatlararo munosabatlarda uyg'unlik vujudga kelgan mamlakatlarda ko'p millatlilik jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Respublikamizda e'tiqod erkinligining fuqarolarga kafolatlanishi diniy ma'rifiy ilm eshiklarini ochdi. Bu yo'lda davlatimiz tomonidan ishlab chiqilgan siyosiy-huquqiy shart-sharoitlar hamda xalqimizga xos bag'rikenglik madaniyati, bir tomondan, konfessiyalararo sog'lom muloqotni rivojlantirishga mustahkam asos bo'lib xizmat qildi.

Din o'zi nima? Din e'tiqoddir. Bu esa har bir kishining shaxsiy ishi. Din muayyan ta'limotlar, his-tuyg'ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatlari orqali namoyon bo'ladi. Yana ham aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, muayyan g'oyalar din darajasiga chiqishi uchun, qo'yidagilar talab etiladi: "1- g'ayritabiiy iloh (yoki ilohlar) haqidagi tasavvurlarning mavjudligi; 2- xudo bilan insonlarni bog'lab turuvchi ibodatlarning mavjud bo'lishi; 3- e'tiqodlarni o'zida jamlaydigan diniy tashkilotlarning mavjudligi" (1).

Dinlararo bag'rikenglik g'oyasi xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir vatanda, olijanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashini anglatadi. Dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik g'oyalariga asoslanadi, u halollik, tinchlik, yaxshilik va do'stlik kabi bir qancha ezgu fazilatlarga tayanadi. Insonlarni halollik va poklik, mehr-oqibat, insonparvarlik va bag'rikenglikka da'vat etadi. Qadim- qadimdan din aksariyat ma'naviy qadriyatlarni o'zida mujassam etib keladi. Milliy kadriyatlarining asrlar osha bezavol yashab kelayotganligi ham dinning ana shu tabiati bilan bog'liq. Azal-azaldan ona yurtimizda islom, xristian, iudiylik, buddaviylik kabi din vakillari yonma-yon yashab kelgan. Asrlar mobaynida yirik shaharlarda masjid, cherkov va sinagogalarning mavjud bo'lishi, turli millat va dinga mansub qavmlarning o'z diniy amallarni erkin ado etib kelayotgani buning tasdig'idir. Tariximizning eng murakkab, og'ir davrlarida

ham ular orasida diniy asosda mojarolar bo‘lmagani xalqimizning dinlararo bag‘rikenglik masalasida ulkan tajriba to‘plaganidan dalolat beradi.

Agar shunday bo‘lmaganda Jaloliddin Rumiylar tobuti ketidan turli din vakillari yahudiy rovvini ham, xristian ruhoniysi ham yig‘lab bormas edi. Mana yozuvchi Radiy Fishning **“Jaloliddin Rumiylar”** asarida bu haqda qanday tavsif beriladi: “...Hofizlar Qur‘on o‘qishar, ravvinlar Tavrot, pravoslav ruhoniylari Injil oyatlarini xonish qilar, oshiqlar... qo‘shiqlar kuylashardi”. Shu erda ham ayirmachilar ularni ketkizishni hokim Parvonadan so‘rashganda xristian va yahudiy vakillari aytishadiki, -Mavlono bir haqiqat Quyoshi ediki, Quyosh hammaniki turur, -Mavlono -non kabidirlar, ochlarning nondan yuz o‘girib ketganini qayda ko‘rgansiz? Zero Rumiylarning o‘zi diniy tolerantlikni ilgari surar, bu haqda shunday yozmish:

Mayliga, kim bo‘lmagil, kel bari bir,  
Dahri-yu otashparastsan – bari bir,  
Necha bor paymonshikastsen – bari bir,  
Noumid qo‘ymas seni ostonamiz,  
Mayliga, kim bo‘lmagil, kel, bari bir (2).

Shuningdek, **“Ma‘mun akademiyasi”**da faoliyat olib borgan Beruniylar va Ibn Sinolarning shogirdlari, olimlar ichida ham turli din vakillari bo‘lganligi, diniy bag‘rikenglikning isbotidir.

## **NATIJALAR**

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta‘kidlaganidek “Muqaddas dinimiz bundan buyon ham xalqimizni birlashtirib, millati va tilidan qat‘iy nazar, ma‘naviy poklanish, odamlarni tinchlik, ezgulik, bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat va totuvlikka undaydigan, o‘rnini hech narsa bosa olmaydigan vosita bo‘lib xizmat qilishi shubhasizdir. Islom dini faqat nurli hayotga, ilm-ma‘rifatga, yaxshilikka undaydigan. Hech qachon xunrezlik, qotillik, zo‘ravonlikka chaqirmaydi(3).

Bizning Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda O‘zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari millati, tili va dinidan qat‘i nazar, teng huquq va erkinliklarga ega ekani mustahkamlab qo‘yilgan. Ularga o‘z milliy madaniyati, an‘ana va urf-odatlarini saqlash hamda har tomonlama rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan.

1991-yilda, milliy mustaqillikka erishish arafasidayoq, O‘zbekistonda davlat va jamiyat hayotini demokratiyalash jarayoni boshlandi. Din borasida diniy bayramlar Davlat bayrami deya e‘tirof etildi. Xaj va umra ziyoratiga borish imkoniyati yaratildi Bu masalalarda Respublikamizda jiddiy o‘zgarishlar amalga oshirildi. Ana shunday sharoitda **«Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»** qonun qabul qilish

hayotiy zaruratga aylandi. Bu qonun mutlaqo yangi sharoitda dinning, diniy tashkilotlarning jamiyatdagi o'rnini, davlat va din munosabati tamoyillarini belgilab berishi lozim edi.

1991-yil 14- iyunda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi ana shunday qonunni qabul qildi. 1998- yil 1- may kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XI sessiyasida "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunning 23 moddadan iborat yangi tahriri qabul qilindi. 2021- yil 5- iyulda esa, 35 moddadan iborat yangi qonun qabul qilindi. Yangi qonunning «**Ta'lim tizimi va din**» deb atalgan 8-moddasida quyidagilar yozib qo'yilgan: «O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi dindan ajratilgandir. Ta'lim tizimining o'quv dasturlariga diniy fanlar kiritilishiga (bundan diniy ta'lim muassasalari mustano) yo'l qo'yilmaydi». Bu ayni vaqtda belgilangan hayotiy qoidadir (4).

Davlatimizning asosiy qonuni- konstitutsiyamizning 31-moddasida quyidagi satrlar bitilgan: "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan diniga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi" (5). Shuni aytish joizki, vijdon erkinligi demokratiyaning tarkibiy qismi hamdir.

Hammamizga ma'lumki, O'zbekiston aholisi milliy tarkibiga ko'ra aholisi ko'p millatli davlatlar qatoriga kiradi. Hozir O'zbekistonda 136 ta millat va elatlarning vakillari yashaydi. Respublikamiz aholisining 80 foizini o'zbeklar tashkil qiladi. Har bir millatning umumiy manfaatlari bilan birga o'z qadriyatlari ham bor. O'zbekiston kabi ko'p millatli mamlakatda turli millatlar manfaatlarini uyg'unlashtirish, ular orasida totuvlikni ta'minlash taraqqiyotning hal qiluvchi omillaridan biri hisoblanadi.

## **MUHOKAMA**

Mamlakatimiz rahbariyati milliy masalani oqilona, xalqaro tamoyillarga mos yo'l bilan echish, millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish chora-tadbirlari ko'rib kelinmoqda. Bu borada konstitutsiyaviy talablar asosida ish tutilmoqda. Yurtimizning ko'pmillatli xalqi ongida «**O'zbekiston - yagona Vatan**» degan g'oya asosida haqiqiy vatandoshlik tuyg'usini shakllantirish bu boradagi ishlarning muhim yo'nalishiga aylandi. Davlat ta'lim muassasalarida o'qitish 7 tilda olib borilmoqda. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi o'z ko'rsatuvlarini 12 tilda namoyish etmoqda, o'ndan ortiq tilda gazeta va jurnallar nashr etilmoqda. Mamlakatimizda etnik o'ziga xoslikni rivojlantirish va millatlararo munosabatlarni yanada uyg'unlashtirishda 137 ta milliy madaniy markaz etakchi rol o'ynamoqda. Respublika baynalmilal madaniyat markazi o'zining ko'plab tadbirlarini o'tkazib kelayotgan bog'ni «**Do'stlik bog'i**» deb nomlanishi bejiz emas. Jumladan,



O‘zbekistondagi nemis milliy madaniy markazi raisi Natalya Kayzer: «Men tuprog‘ini ko‘zlarimga to‘tiyo qilishga arziydigan o‘zbek yurtida, mehribon insonlar bag‘rida tug‘ilib o‘sdim. Hech ham ko‘nglim o‘ksiganini eslay olmayman. To‘g‘risini aytsam, nemis millatiga mansub o‘zbek ayoliman. Prezidentimiz SHavkat Mirziyoev har birimizning ko‘nglimizga yo‘l topadi, bizni ardoqlaydi. Men uchun bu yurtning begona giyohi yo‘q, bir qultum suvi ham men uchun aziz. O‘zbek xalqi bu men, siz, shu davrada o‘tirgan barcha qorako‘zlardir», deya etirof etgani, mamlakatimizda yashayotgan barcha millat va ellat vakillarining haqiqatidir (6).

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda millatlararo munosabatlar rivojida yangi bosqich boshlandi. Bag‘rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O‘zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilandi. Bularning barchasi hayotda o‘zining to‘liq ifodasini topdi.

Xususan, “2017-2021- yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”ning beshinchi yo‘nalishi, aynan, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta‘minlash masalasiga bag‘ishlangani ham O‘zbekiston hukumatining xalqaro hujjatlarda belgilangan umuminsoniy normalarga mos ravishda faoliyat yuritayotganidan dalolatdir.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 2020- yil yanvar oyida Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida, jamiyatda millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik muhitini mustahkamlash borasidagi ishlarni izchil davom ettirishni, bu borada 30- iyul – “Xalqaro do‘stlik kuni” munosabati bilan yurtimizda birinchi marta “Do‘stlik haftaligi”ni va “Do‘stlik” xalqaro forum-festivalini o‘tkazishni taklif etdilar (7).

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov «Fidokor» gazetasi muxbiri bilan qilgan suhbatlarida «Agar mendan, nega milliy qadriyatlarimiz shuncha zamonlar osha bezavol yashab kelayapti, deb so‘rasha, bu , avvalo, muqaddas dinimiz hisobidan, deb javob bergan bo‘lur edim», -degan edilar (8). Haqiqatdan ham din, asrlar davomida axloqni, milliy madaniyatni ximoyachisi bo‘lib kelgan. Bugungi kunda diniylik dunyoviylikka xizmat qilib uni o‘ldirib kelmoqda.

Diniylik dunyoviylikka xizmat qilishi mumkin deganda, dunyoqarashning ezgulik, yaxshilik, halollik, tinchlik, do‘stlik kabi yuksak insoniy fazilatlarni tarbiyalashni nazarda tutamiz. Diniy bag‘rikenglikning qaror topishi, mustahkamlanishi, rivojlanishi barcha kishilarni e‘tiqodidan qat‘iy nazar milliy g‘oya va mafkurani amalga oshirish yo‘lida birlashtiradi.

Mamlakatimizda “Jaholatga qarshi – ma’rifat” degan ezgu g’oya asosida islom dinining insonparvarlik mohiyatini, tinchlik va do’stlik kabi olijanob maqsadlarga xizmat qilishini targ’ib etish davlatimiz siyosatidagi kun tartibidagi doimiy masalalardan biri bo’lib kelmoqda. Ayni paytda O‘zbekiston Respublikasida jami 2276 ta diniy tashkilot va 16 ta diniy konfessiya faoliyat yuritib kelmoqda (9).

Umuman olganda, xalqaro hamjamiyat mamlakatimizning millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash borasidagi faoliyatini yuqori baholamoqda va O‘zbekiston tajribasiga katta qiziqish bilan qaramoqda. Xususan, O‘zbekiston - Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017- yil 19- sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta’minlash, e’tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslikka ko‘maklashishga qaratilgan “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyusiyasini qabul qilish taklif etilishi va ushbu hujjatning 2018- yil 12- dekabrda qabul qilinishi bunga yaqqol misol bo‘la oladi (10) .

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, jahon keng, dunyoda mamlakat ko‘p, lekin bu olamda betakror ona yurtimiz, O‘zbekistonimiz yakka-yu yagonadir. O‘zbekiston deb atalmish yurtning yagonaligi uning betakror tabiati, boy tarixi, mehnatkash insonlari bilan bir qatorda bu zaminda turli millat va elat vakillarining yagona oila farzandlaridek yashashlarida namoyon bo‘lmoqda. Millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik tushunchalari qadriyat o‘laroq, eng avvalo, boy tarixiy-ma’naviy meros, milliy qadriyat, urf-odat va an’analar asosida milliy o‘zligini anglagan, milliy g‘urur - iftixori yuksalgan, umuminsoniy qadriyatlar, zamonaviy texnologiyalar, ilmfan yutuqlari asosida dunyoqarashi shakllangan barkamol avlodni tarbiyalashni ko‘zda tutadi.

## **REFERENCES**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, T.: “O‘zbekiston”, 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 15 noyabrdagi 5876-son Farmoni: “Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi Davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 19 mayda qabul qilingan “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni

4. Mirziyoev SH.M. Millatlararo do‘stlik va hamkorlik – xalqimiz tinchligi va farovonligining muhim omili. «Ma’rifat» gaz., 2017 yil 25 yanvar.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 2020 yil 24 yanvar.
6. Karimov I. “Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz 8-tom. T.: “O‘zbekiston”, 503-bet
7. Internet materiallari.

**Ko`chirmalar:**

1. Yusupova D.D., Dinshunoslik, “O‘qituvchi”, T.-2019, 8-bet.
2. Radiy Fish “Jaloliddin Rumiy” T.: “Yangi asr avlodi”, 2016,335-336-bb.
3. Mirziyoyev Sh.M. “Taqdiri milliy taraqqiyot yo‘limizni qatiyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz”. 1-jild T: “O‘zbekiston ” IMIU, 2017, 475-bet.
4. <https://lex.uz/docs/5491534>.
5. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi, T.: “O‘zbekiston”, 2017, 21-bb.
6. <https://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-tinchlik-dinij-bagrikenglik-va-millatlararo-totuvlik-chorrahasi>.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2020 yil 24 yanvar.
8. Karimov I. “Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz”. 8-jild T.: “O‘zbekiston”,2000 , 503-bet
9. <https://strategy.uz/index.php?news>
10. Axmedov T., "Yangi O‘zbekiston" gazetasi №236 8.12.2020 y.